

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TIL VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



PSIXOLOGIYA VA SOTSIOLOGIYA KAFEDRASI

UMUMIY PEDAGOGIKA FANINING
O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 200 000 – San'at va gumanitar soha
Ta'lim sohasi: 230000 – Tillar
Ta'lim yo'nalishi: 60230900 – Folklorshunoslik va shevashunoslik

Toshkent – 2025

Fan/modul kodi UmPed 1505 (bakalavriat)	Fan/modul turi majburiy	Ta'lim tili o'zbek	Ishlab chiqilgan o'quv yili 2025/2026	
Har bir semestrda fan/modulning nomi	Semestr	Haftalik dars soatlari	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)
Umumiy pedagogika	5	5	60	90
Jami:			60	90
				Jami yuklama (soat)
				150
				150

I.

V-SEMESTR

I. Fanning mazmuni

“Umumiy pedagogika” fanining ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlarining bakalavriat bosqichi uchun “Umumiy kasbiy fanlar” bloqining davlat ta'lim standartlari asosida tuzilgan. «Umumiy pedagogika» fani “Pedagogika nazariyasi”, “Pedagogika tarixi” va “Pedagogik mahorat” bo'limlaridan iborat. «Umumiy pedagogika» fan sifatida pedagogik oliy o'quv yurtlarida talabalarni kasbiy va pedagogik tayyorlash tizimida yetakchi o'rinni egallaydi.

Fanning vazifasi - O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirishning konseptual asoslari, o'qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida, ta'lim mazmuni, ta'lim metodlari va vositalari, ta'limni tashkil etish shakllari va turlari, STEAM ta'lim (STEAM education), o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish, tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni, tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari, jamoa tarbiya obyektii va subyekti sifatida, aqliy tarbiya, fuqarolik tarbiyasi, ta'lim muassasasi menejmenti, korreksion pedagogika asoslari, inklyuziv ta'limni o'z ichiga qamrab oladi.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-MODUL. “Pedagogika nazariyasi”.

1-mavzu. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi. Pedagogika shaxs tarbiyasi va rivojlanishi to'g'risidagi fan. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi va metodlari.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida

tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi sohada yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda. Pedagogika ijtimoiy fan sifatida. Pedagogikaning asosiy kategoriyalari. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari. Shaxs tushunchasi. Shaxs rivojlanishi. Shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar. Shaxs rivojlanish yosh davrlari. Shaxs rivojlanishining gender xususiyatlari. Shaxsning ijtimoiylashuvi.

2-mavzu. Didaktika - pedagogik ta'lim nazariyasi. Ta'lim jarayonining tamoyillari.

Ta'lim nazariyasi (didaktika) pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida. Didaktikaning maqsad va vazifalari. Ta'lim jarayonining mohiyati. O'qitish va o'rganish jarayonlari tavsifi, o'quv jarayonida ularning o'zaro bog'liqligi. O'quvchilarning bilish faoliyati va uning tuzilishi. Ta'lim tamoyillari va qonuniyatlari. “Qonun”, “qonuniyat” va “tamoyil” tushunchalarining mazmuni. Ta'limning umumiy va xususiy qonuniyatlari. Ta'limning mazmunli va tashkiliy-metodik tamoyillari.

3-mavzu. Yaxlit pedagogik jarayon. Ta'lim mazmuni. Davlat ta'lim standartlari. Yaxlit pedagogik jarayon tushunchasi va uning tuzilishi. Pedagogik jarayon qonuniyatlari va tamoyillari. Pedagogik jarayonda tarbiyaning mohiyati va maqsadi.

Ta'limning maqsadi va mazmuni. Ta'lim mazmunini belgilash. O'quv rejasi. O'quv dasturi. Darsliklarning pedagogik tahlili. Asrimizning boshlarida Abdulla Avloniy “Tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot - yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir” degan edi. Bu fikr hozirda demokratik jamiyat qurayotgan, kelajakda buyuk davlat barpo qilish niyatida bo'lgan O'zbekiston Respublikasi uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

4-mavzu. Ta'lim metodlari va vositalari.

Ta'lim metodlari. “Metod” so'zining yunoncha tarjimai «tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo'li» kabi ma'nolarni anglatadi. Ta'lim metodlari va usullari tushunchalari. Zamonaviy didaktikada ta'lim metodlari tasnifiga turlicha yondashuvlar. Ta'lim metodlarining mohiyati. Interfaol ta'lim metodlari. Evristik metodlar. Ta'lim metodlarini tanlab olish shartlari. Ta'lim vositalari va ularning funksiyalari. Interaktiv dasturiy vositalar.

5-mavzu. Ta'limni tashkil etish shakllari va turlari

Ta'limni tashkil etish shakllari tushunchasi va ta'lim turlari. Darsning turlari va tuzilishi. Nostandart darslar. Ta'limni tashkil etishning yordamchi shakllari. O'qituvchining darsga tayyorlanishi.

6-mavzu. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish. Xalqaro baholash dasturlari.

Ta'lim olganlikni tashxis etishning mohiyati. O'quv jarayonida nazorat va hisobga olish funktsiyalari. Ta'lim olganlikni tashxis etish. Xalqaro baholash dasturlarining me'yoriy asoslari. Xalqaro baholash dasturlari metodologiyasi. PISA - o'quvchilarni ta'limiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturi. PIRLS - matni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot. TIMSS - maktabda

matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring. ISILS – kompyuter va axborot savdoxonligi bo'yicha xalqaro tadqiqot

7-mavzu. Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni. Jamoa tarbiya obekti va subekti sifatida. Tarbiyaning umumiy metodlari. Tarbiya tushunchasi, tarbiyaning maqsadi va umumiy vazifalari. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari.

Jamoa tushunchasi. O'quvchilar jamoasini shakllantirishning mohiyati va tashkiliy asoslari. O'quvchilar jamoasining rivojlanish darajasi va bosqichlari. O'quvchilar jamoasi rivojining asosiy shart-sharoitlari.

Tarbiya metodlari haqida tushuncha. Tarbiya metodlari tasnifi. Ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari. Faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy xulq-atvor meyorlarini shakllantirish. Pedagogik rag'batlantirish va xulq-atvorni tuzatish metodlari. Tarbiya metodlarini tanlab olish shartlari.

8-mavzu. O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish. Aqliy, mafkuraviy tarbiya.

Mustaqil fikrlash, ilmiy dunyoqarash va milliy g'oyani shakllan-tirish o'quv-tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari. O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismlari.

Tarbiya turlari. Aqliy tarbiyaning maqsadi va vazifalari. Aqliy tarbiya vositalari. Iqtisodiy tarbiya - o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismi sifatida. O'quvchilarning ekologik tarbiyasi. Mafkuraviy tarbiyaning maqsad va vazifalari. Mafkuraviy tarbiya shakli, metod va vositalari. Mafkuraviy tarbiya texnologiyasi. Neyrolingvistik dasturlashtirish texnologiyasi. Ma'naviy tarbiya – yuksak ma'naviyatni tarbiyalash vositasi, muayyan shaxs, jamoa, muayyan guruh, jamiyat, millatda jismoniy barkamollik, ruhiy, axloqiy, ma'naviy yetuklik kabi sifatlarini shakllantirishga qaratilgan amaliy ta'lim-tarbiya jarayonini ifodalovchi tushuncha. Oilada ota-ona, vasiy yoki katta kishilar tomonidan bolalarni tarbiyalash. Yosh avlodning har tomonlama rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Oila tarbiyasida ota-ona obro'si, ularning kuzatuvchanligi, sezgirligi, hozirjavoblighi muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Jismoniy tarbiya aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiya bilan qo'shib olib boriladi.

9-Mavzu. Ta'lim muassasasi menejmenti. O'quvchilarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish.

Ta'lim-tarbiya muassasalarida ta'lim menejmentini takomillashtirish yuzasidan ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish hamda amaliyotga joriy qilish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish. Ta'lim-tarbiya muassasalarida ta'lim menejmentini rivojlantirish tendensiyalarini ishlab chiqish. Ta'lim muassasalarida ta'lim menejmentini joriy qilishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish. Ta'lim muassasalarida ta'lim menejmentini joriy qilish mexanizmlarini (ta'lim natijalarini loyihalash, ta'limni tashkil etish, monitoring va diagnostika qilish, korreksiya qilish, baholash) takomillashtirish. Ta'lim menejmenti samaradorligini baholash mezonlarini zamonaviy

tendensiyalar asosida takomillashtirish. Xalqaro tajribalar va ilmiy izlanishlarga muvofiq ravishda ta'lim menejmentining dolzarb muammolari yuzasidan tizimli asosda ilmiy-tadqiqot dasturlari va loyihalarini amalga oshirish. Tadqiqot natijalari bo'yicha ishlab chiqilgan uslubiy tavsiyalar asosida seminarlar va davra suhbatlari, onlayn muloqotlarni tashkil etish. Axborot iste'moli madaniyati: mazmuni va mohiyati. Shaxsiy axborot xavfsizligi. O'quvchilarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish metodlari. O'quvchilarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish texnologiyasi.

10-Mavzu. Korreksion pedagogika asoslari. Inklyuziv ta'lim texnologiyasi.

"Korreksiya" tushunchasi (yunoncha "correction"-tuzatish) korreksion pedagogika pedagogik uslub va tadbirlar yordamida anomal bolalarga ta'lim berish va ularning kamchiliklarini tuzatish, aqliy rivojlantirish vazifalarini o'z ichiga oladi. Anomal bola qanday bo'ladi? Anomal so'zining manosi? Ruhiy va jismoniy kamchiliklari mavjud bo'lgan bolalar anomal bolalar deb yuritiladi. Anomal so'zi yunoncha anomalos so'zidan olingan bo'lib odatdan tashqari, noraso degan ma'nolarni bildiradi. Korreksion pedagogikaning asosiy maqsadi anomal bolalarning ta'lim olishiga zarur shart-sharoitlarni o'rganib chiqish va ularning kamchiliklarini iloji boricha tuzatish, bartaraf etish yoki sezilmaydigan holga keltirish usullarini tarbiyachilarga va o'quvchilarga yoritib berishdan iborat. Korreksion pedagogikaning vazifasi anomal bolaning kelib chiqish sabablarini, turlarini, anomal bolalarning psixofiziolagik rivojlanishdagi xususiyatlarini o'rganib chiqqan holda integratsiyalashgan, inklyuziv yoki differensial ta'limni tashkil qilish va ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanish hisoblanadi.

2-MODUL. "Pedagogika tarixi".

1- mavzu. Pedagogika tarixi fan sifatida. Ibtidoiy jamoada tarbiya. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar

"Pedagogika tarixi" fanining maqsad va vazifalari. "Pedagogika tarixi" fani g'oyalarning kishilik jamiyati taraqqiyoti bilan o'zaro aloqadorligi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'lim-tarbiya jarayonida milliy meros, pedagogik qadriyatlaridan samarali foydalanishning ijtimoiy ahamiyati haqida. Ta'lim-tarbiya va pedagogika tarixini davrlashtirish muammolari.

Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti. Eng qadimgi yozma manbalarda ta'lim-tarbiya masalalarining yoritilishi.

2- mavzu. VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha O'rta Osiyoda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar. Sharq uyg'onish davrida ta'limiy-axloqiy fikrlar rivoji

Islom dinining tarqalishi va uning ta'lim-tarbiyaga ta'siri. Musulmon maktablari va unda ta'lim-tarbiya mazmuni. Dinij kitoblarning tarbiyaviy

ahamiyati. Qur'oni Karim – axloqiy-falsafiy ta'limotlar manbai. Hadis ilmining paydo bo'lishi. Muhaddislar (Imom Ismoil al-Buxoriy, Imom Iso at-Termiziy va boshqalar)ning hadis ilmi rivojiga qo'shgan hissi. IX-XI asrlar – Sharq Uyg'onish davri. Abu Abdulloh Xorazmiyning didaktik qarashlari. Abu Nasr Forobiyning asarlaridagi pedagogik fikrlar. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy-pedagogik qarashlari. Abu Ali ibn Sino tarbiya va ta'lim haqida. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'o'it-turk" asarida ta'lim-tarbiya masalalari. Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilik" asari – pandnoma asar sifatida. Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asarida didaktik qarashlar. Kaykovusning "Qobusnoma" asarining tarbiyaviy ahamiyati.

3-mavzu. XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda, XVII asrdan XIX asrning yarmigacha tarbiya. 2-yarmi – XX asrning 1-choragida

Turkiston o'lkasida tarbiya, Movaraunnahrd tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji. Ijtimoiy hayotning ta'lim-tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivojiga ta'siri. So'fiylik ta'limotining ma'naviy hayotga ta'siri. Movaraunnahrd Amir Temur tomonidan markazlashgan davlat barpo etilishi va uning fan, madaniyat va ma'rifat rivojiga qo'shgan hissi. Mirzo Ulug'bekning pedagogik g'oyalari va ma'rifatparvarlik xizmatlari. Ulug'bek davrida maktab islohoti. Zahiriddin Muhammad Boburning pedagogik fikrlari. Alisher Navoiyning asarlarida tarbiya va insonparvarlik masalalari. Navoiyning maktab va madrasalar rivojiga qo'shgan hissi. Navoiyning o'qituvchi (mudarris) to'g'risidagi fikrlari. Abdurahmon Jomiyning pedagogik qarashlari. Jaloliddin Davoniyning axloqiy qarashlari. "Axloqiy Jaloliy" asarining pedagogik fikrlar rivojidagi o'rni.

4-mavzu. 1924-1991- yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimi va pedagogik fikrlar rivoji. Mustaqil O'zbekiston ta'lim tizimi. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivoji. Turkiston o'lkasida ta'lim siyosati. 1924-1945 yillarda ta'lim va pedagogika fani. 1945-1991 yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimi va pedagogika fani rivoji. Mustaqil O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun - Respublikamizda ta'lim-tarbiyani tashkil etish va kadrlar tayyorlashning huquqiy asosi sifatida. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivojining asosiy yo'nalishlari. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning asarlarida jamiyat rivojining ma'naviy-axloqiy negizlari va yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishga doir konseptual fikrlarning ifoda etilishi. O'zbekiston Respublikasi rivojining yangi bosqichida ta'lim-tarbiya islohotlari: Sh. M. Mirziyoyevning ta'lim-tarbiyaga oid fikrlari.

5-mavzu. Eng qadimgi davrlardan XIX asrning birinchi yarmida jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi. Qadimgi Sharq. Qadimgi Yunoniston, Qadimgi Rim davlatlarida maktab va tarbiya. Qadimgi Yunoniston faylasuflari tarbiya to'g'risida. Qadimgi Rimda pedagogik g'oyalari rivoji. XII asrda Rossiyada pedagogik adabiyotlarning nashr etilishi. Rus pedagog-olimlarining pedagogik g'oyalari. G'arbiy Yevropada maktab va pedagogik fikrlar. Iogann Genrix Pestalotssining

6-mavzu. Eng qadimgi davrlardan XIX asrning birinchi yarmida jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi. Qadimgi Sharq. Qadimgi Yunoniston, Qadimgi Rim davlatlarida maktab va tarbiya. Qadimgi Yunoniston faylasuflari tarbiya to'g'risida. Qadimgi Rimda pedagogik g'oyalari rivoji. XII asrda Rossiyada pedagogik adabiyotlarning nashr etilishi. Rus pedagog-olimlarining pedagogik g'oyalari. G'arbiy Yevropada maktab va pedagogik fikrlar. Iogann Genrix Pestalotssining

didaktika va boshlang'ich ta'lim metodikasiga qo'shgan hissi. Adolf Distervegning rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi.

6-mavzu. XIX asrning 2-yarmi – XX asrda jahon pedagogika fanining rivoji. Y.A. Komenskiyning pedagogik nazariyasi. K.D. Ushinskiyning pedagogik merosi.

XIX asrning oxiri – XX asrda G'arbiy Yevropa, AQSH, Rossiyada reformatorlik pedagogikasi va uning asosiy yo'nalishlari. M.V. Lomonosov va uning rus pedagogikasi va maktablar rivojidagi o'rni. L.N. Tolstoyning pedagogik qarashlari. Y.A. Komenskiyning pedagogik nazariyasi. K.D. Ushinskiy pedagogika fani va tarbiyaning ahamiyati to'g'risida. K.D. Ushinskiyning didaktik qarashlari va pedagogik merosi.

3-MODUL. "Pedagogik mahorat"

7-mavzu. Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta'lim tizimi va pedagogika fani rivoji. Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o'qituvchi mahorati masalalari. Pedagogik mahoratning asosiy komponentlari.

XIX asr jahon ta'lim tizimidagi global tendensiyalar. Iqtisodiy rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi. Ta'lim modellari. Xalqaro loyihalar va ta'lim dasturlari. Pedagogik faoliyat va uning o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida pedagogik faoliyatni tashkil etishga qo'yilgan talablar. Pedagogik fikrlar taqiyotida o'qituvchi mahorati masalalari. Pedagogik mahorat xaqida tushuncha. Pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismlari.

8-mavzu. O'qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat. Kommunikativ malakalar va ta'sir ko'rsatish. O'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlash. Pedagogika tajribani to'plash tizimi.

Qobiliyat va pedagogik qobiliyat haqida tushuncha. Pedagogik qobiliyatning turlari va ularning tavsifi. Pedagogik qobiliyatni shakllantirish yo'llari. Kommunikatsiya haqida tushuncha. Kommunikatsiya metodlari. O'qituvchining kommunikativ malakasi. Kommunikativ ta'sir etish yo'li. O'qituvchining kommunikativ madaniyati. O'qituvchining kommunikativ qobiliyatini rivojlantirish yo'llari. O'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlashning mohiyati. O'z-o'zini tarbiyalash va o'zini o'zi takomillashtiri yo'llari.

9-mavzu. O'qituvchi faoliyatida muomala madaniyati va psixologiyasi. Nutq texnikasi va madaniyati. Pedagogik muloqot haqida tushuncha. Pedagogik muloqotning tuzilishi va metodlari. Pedagogik muloqot uslublari. Muloqot madaniyati. Pedagogik nizo va uning sabablari. Pedagogik nizolarning oldini olish yo'llari. Nutq haqida tushuncha. Nutqning o'qituvchi faoliyatidagi o'rni. Nutq madaniyati haqida tushuncha va uning asosiy elementlari. Nutq texnikasi: nafas olish, tovush, diktsiya, ritmika. Leksik madaniyat. O'qituvchining nutq malakasini shakllantirish yo'llari.

10-mavzu. Pedagogik takt va pedagogik etika. Pedagogik texnika haqida tushuncha. Pedagogik texnikani shakllantirish metodikasi. O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish. Takt va pedagogik takt haqida

tushuncha. Taktika va pedagogik taktika. Pedagogik taktikni qo'llash shartlari. Etik kategoriyalar. Pedagogik etika va pedagogik etiket. Pedagogik faoliyatda muomala etikasi. Pedagogik texnika haqida tushuncha. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari. Mimika. Pantomimika. O'qituvchining pedagogik texnikasini shakllantirish yo'llari.	
II. Fan tarkibiga quyidagi amaliy mashg'ulotlar mavzulari kiradi:	
III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar <i>Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:</i> O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi. Pedagogika fan sifatida. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari. O'quvchi shaxsi tarbiyaning ob'ekti va sub'ekti. Didaktika - pedagogik ta'lim nazariyasi. O'qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida Ta'lim jarayonining qonuniyatlari va tamoyillari.. Ta'lim mazmuni. Davlat ta'lim standarti. Ta'lim metodlari va vositalari. Dars - ta'limni tashkil etishning asosiy shakli. STEAM ta'lim (STEAM EDUCATION). Iqtidorli o'quvchilarni o'qitish (Education of gifted children). O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish. Xalqaro baholash dasturlari Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari. Tarbiyaning umumiy metodlari. Tarbiya turlari. Aqliy tarbiya. Iqtisodiy va ekologik tarbiya. Fuqarolik tarbiyasi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya. O'quvchilarning jismoniy va estetik tarbiyasi. Ta'lim muassasasi menejmenti. Oila tarbiyasi. Korreksion pedagogika asoslari. Inklyuziv ta'lim texnologiyasi. Eng qadimgi yozma yodgorliklarda ta'lim-tarbiya masalalari. Hadis ilmi va uning tarbiyaviy ahamiyati. Abu Nasr Forobiyning pedagogik g'oyalari. Abu Ali ibn Sino ta'lim-tarbiya haqida. Yusuf Xos Hojib va Mahmud Qoshg'ariyning pedagogik qarashlari. Ahmad Yugnakiyning ta'limiy-axloqiy qarashlari. Kaykovusning "Qobusnoma" asari va javonmardlik tarbiyasi. Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning didaktik g'oyalari. Abu Rayhon Beruniyning pedagogik qarashlari. Ahmad Yassaviyning ta'lim-tarbiyaga oid fikrlari. Umar Hayyomning ta'lim-tarbiyaga oid fikrlari. Mirzo Ulug'bekning pedagogik g'oyalari va ta'lim rivojidagi xizmatlari. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning pedagogik qarashlari.	

Jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik qarashlari. Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari O'zbekiston Respublikasining jamiyat rivojining ma'naviy-axloqiy negizlari va yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishga doir konseptual fikrlarning ifoda etilishi. Yan Amos Komenskiyning pedagogik tizimi. Konstantin Dmitriyevich Ushinskiyning pedagogik tizimi. Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta'lim tizimi va pedagogika fani rivoji. Rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi. Pedagogik qobiliyatni shakllantirish yo'llari. Kommunikatsiya haqida tushuncha. Kommunikativ qobiliyat va pedagogik ta'sir ko'rsatish. O'qituvchi faoliyatida muloqot madaniyati va psixologiyasi. Takt va pedagogik takt haqida tushuncha. Pedagogik takti qo'llash shartlari. Pedagogik odob. Pedagogning muomala odobi. Pedagogik texnika. Nutq texnikasi va madaniyati. O'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlash pedagogik mahoratning asosiy sharti sifatida. O'qituvchilarning ilg'or pedagogik tajribalarini to'plash va amaliyotda qo'llash.	
IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar <i>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:</i> 1. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi. 2. Yaxlit pedagogik jarayon bosqichlari. 3. Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi. 4. Ta'lim jarayoni yaxlit tizim sifatida. Ta'lim tamoyillari. 5. Ta'lim mazmuni. 6. Ta'lim turlari va ta'limni tashkil etish shakllari. 7. Ta'lim olganlikni tashxis etish. Iqtidorli o'quvchilarni o'qitish 8. Bolalar tarbiya jamoasi - yaxlit pedagogik jarayonning asosiy shakli. 9. O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish O'quvchilarning aqliy tarbiyasi. 10. Axborot iste'mol qilish madaniyati	
2. V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: Motivatsion-kognitiv - bilish faoliyatiga yo'nalganlik, o'quv-bilish faoliyatining anglanganligi, ijodiylik, nassandart vaziyatlardagi xulq-atvor, o'quv vazifalarini hal etishdagi mustaqillik, pedagogik kasbini egallashga qiziqish va intilishlarga ega bo'ladi; Informationsion - axborotlar ustida ishlash, axborot xurujlaridan himoyalash, axborot iste'moli madaniyatini egallab olishga oid bilimiga. Kommunikativ - lingvistik savodxonlik, adabiy va ilmiy uslub qoidalarini o'zlashtirish, verbal va noverbal nutq ko'nikmalarini o'zlashtirish, o'zaro fikr almashish, voqelikni tahlil etishda erkin muloqotga kirishish, pedagogik voqelikka	

o'zining xolisona munosabatini bildiradi; shuningdek, g'oyaviy-mafkuraviy – milliy g'oyaning mazmun-mohiyatidan xabardorlik, dunyoning mafkuraviy manzarasini anglash, g'oyaviy immunitetga egalik, mafkuraviy tahlildan himoyalash, milliy g'oyaning shaxsiy va ijtimoiy mohiyatini anglash, milliy g'oyaning pedagogik faoliyatdagi o'rini aniqlashga olish ko'nikmalarga, Akmeologik – o'ziga va uni o'rab turgan atrof-muhitga ishonch, o'z xohish-istaklari va ehtiyojlarini to'liq anglash, bugungi kundagi mavjud imkoniyatlarni va kelgusidagi ijodiy rivojlanish istiqbollari aniqlash, refleksiya, identifikatsiya, interiorizatsiyaga, o'zining qarashlari, e'tiqodi va ustanovkalarini o'zgartirishga qobiliyatlikka, Aksiologik – pedagogik voqelikni aksiologik baholash, pedagogik hodisalarni qadriyat sifatida anglash, pedagogik jarayondan zavqlanish, lazzatlanish, mas'uliyat hissini sezish, o'z pedagogik pozitsiyasini anglash va ta'limiy qadriyatlar asosida pedagogik faoliyatga tayyorlikka ega bo'lish kabi umumiy kompetensiyalarga ega bo'ladi.	3. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • amaliy ishlarni bajarish va xulosalash; • interfaol keys-stadlar; • blis-so'rov; • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun taqdimotlar.
4. VII. Talabalarning kreditlarni olish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan "OTMLarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida"gi nizomga asosan Umumiy pedagogika fanidan 150 soat 5-semestrda, 5 kredit. Umumiy fan bo'yicha V-semestrda 5 kredit 150 soat <i>o'quv yuklamasini o'zlashtirgan</i>, fan dasturi (sillabus)da belgilangan baholash tartibiga ko'ra <i>ijobiy baholanib kasbiy kompetensiyalarni yetarli darajada egallagan</i> talabaga 5-semestrda 5 kredit beriladi. Talaba belgilangan <i>ta'lim olish natijalariga erisha olmagan</i> taqdirda kreditlar berilmaydi. Talabalarning bilimini baholash mezonlari: 2. Talabalarning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagilarga amal qilinadi: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi. 5 (a'lo) ball olish uchun talaba nazariy jihatdan chuqur bilimga ega bo'lishi, qo'yilgan masalaga ijodiy yondoshib, uning mohiyatini tushunib mustaqil ravishda mushohada yuritib olishi, uni yechish usullarini puxta bilishi va uni amaliyotga qo'llay olishi shart.	

4(yaxshi) ball olish uchun talaba nazariy jihatdan chuqur bilimga ega bo'lishi, qo'yilgan masalaning mohiyatini tushunib, uni yechish usullarini bilishi va uni amaliyotga qo'llay olishi shart. 3(qoniqarli) ball olish uchun talaba qo'yilgan masalaning mohiyatini tushunib, uni yechish usullarini bilishi shart. 0(qoniqarsiz) ball talabaga fan bo'yicha aniq tasavvurga ega bo'lmayligi va fanni o'zlashtirmaganligi uchun qo'yiladi. 3.Nazorat o'tkazish muddatlari: I va 2-oraliq hamda yakuniy nazoratlarining o'tkazilishi muddatlari muayyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi. Izoh: Nazorat turlari, shakllari va soniga keyingi semestrlar davomida kafedra yig'ilishi qarorlariga asosan o'zgartirish kiritish huquqi beriladi. Oraliq nazorat: o'tilgan mavzular bo'yicha <i>yozma</i> shaklida 2-marta o'tkaziladi. Oraliq nazorat: I va II-oraliq 3 tadan yozma shakldagi nazariy savolni o'z ichiga olgan variantlar asosida o'tkaziladi. Har bir to'g'ri javob uchun baho 2- 5 "a'lo". Umumiy baho har bir savolga qo'yilgan bahoning o'rtachasi asosida hisoblanadi. Maksimal baho – 5 "a'lo". 4. Yakuniy va oraliq baholashda quyidagi mezonlarga amal qilinadi: Fan bo'yicha talabaning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 5 baholik tizimda butun sonlar bilan baholanadi. Yakuniy nazorat: Fan bo'yicha semestr davomida o'tilgan mavzular bo'yicha <i>og'zaki</i> shaklida o'tkaziladi. Yakuniy nazorat: Ma'ruza mavzulari asosida variantlar bo'yicha 3 tadan og'zaki shakldagi nazariy savol beriladi. Har bir to'g'ri javob uchun baho 2- 5 "a'lo". Umumiy baho har bir savolga qo'yilgan bahoning o'rtachasi asosida hisoblanadi. Maksimal baho – 5 "a'lo".	I Oraliq nazorat savollari. 1.O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi rivojlantirishning konseptual asoslari 2. Didaktika – pedagogik ta'lim nazariyasi. 3. Ta'limning umumiy metodlari. 4.Pedagogika shaxs tarbiyasi va rivojlanishi to'g'risidagi fan. 5. O'quvchilarni bilim ko'nikma malakalarini tashxis etish. 6. Ta'lim turlari. 7.Ta'lim tizimida ta'lim tamoiillari. 8. Ilmiy tadqiqot metodlari 9. Pedagogika shaxs tarbiyasi va rivojlanishi to'g'risidagi fan. 10.Ta'lim olishning shakllari. 11.Pedagogikaning asosiy kategoriyalariga nimalar kiradi? 12.Ta'lim qonuniyatlari va tamoyillari. 13. Sharq allomalari notiqlik san'ati va o'qituvchilik kasbining o'ziga xosliklari haqida.
---	---

14. Pedagogikaning asosiy kategoriyalariga nimalar kiradi?	
15. Korreksion pedagogika.	
16. Hadis ilmi va uning tarbiyaviy ahamiyati	
17. Ibn Sino-ning aqliy, jismoniy va mehnat tarbiyasiga dior qarashlari.	
II Oralik nazorat savollari.	
1. Jahonning iqtisodiy rivojlangan davlatlari ta'limi.	
2. Komenskiyning o'qituvchilik kasbiga qo'ygan talablari.	
3. STEAM ta'lim.	
4. Iqtidorli o'quvchilarni o'qitish.	
5. Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni.	
6. Xalqaro baholash dasturlari.	
7. Ta'lim tizimida ta'lim metodlari.	
8. Jahonning iqtisodiy rivojlangan davlatlari ta'lim.	
9. Aqliy va fuqarolik tarbiyasi.	
10. Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni.	
11. Fuqarolik tarbiyasi..	
12. Darslik va unga qo'yiladigan talablar.	
13. Yan Amos Komenskiyning pedagogik tizimi.	
14. Konstantin Dmitriyevich Ushinskiyning pedagogik tizimi.	
15. Pedagogik qobiliyatni shakllantirish yo'llari.	
16. O'qituvchi faoliyatida muloqot madaniyati va psixologiyasi.	
17. Pedagogik texnika.	
18. Jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik qarashlari.	
19. Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari	
20. Kommunikativ qobiliyat va pedagogik ta'sir ko'rsatish	
Yakuniy nazorati savollari	
1. Jahonning iqtisodiy rivojlangan davlatlari ta'limi.	
2. Ta'limning umumiy qonuniyatlari.	
3. STEAM ta'lim.	
4. Ta'limning xususiy qonuniyatlari..	
5. Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni.	
6. Xalqaro baholash dasturlari.	
7. Ta'lim tizimida ta'lim metodlari.	
8. Aqliy va fuqarolik tarbiyasi.	
9. Fuqarolik tarbiyasi..	
10. Darslik va unga qo'yiladigan talablar.	
11. Nostandart darsning o'ziga xos xususiyatlari.	
12. Oila tarbiyasi.	
13. O'quvchilarning aqliy, ma'naviy-axloqiy fuqarolik, mexnat, jismoniy va estetik tarbiyasi.	

14. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi rivojlantirishning konseptual asoslari	
15. Xalq pedagogikasida tarbiya metodlari.	
16. Sharq allomalari notiqlik san'ati va o'qituvchilik kasbining o'ziga xosliklari haqida.	
17. Korreksion pedagogika.	
18. Hadis ilmi va uning tarbiyaviy ahamiyati	
19. Ibn Sino-ning aqliy, jismoniy va mehnat tarbiyasiga dior qarashlari.	
20. Pedagogik qobiliyatni shakllantirish yo'llari.	
Nazoratlarni amalga oshirish tartibi va baholash mezonlari	
Izoh: Nazorat turlari, shakllari va soniga keyingi semestrlar davomida kafedra yig'ilishi qarorlariga asosan o'zgartirish kiritish huquqi beriladi.	
Nazoratlarning o'tkazilishi muddatlari muayyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.	
5. Asosiy adabiyotlar.	
1. B.Xodjajev. Umumiy pedagogika. T.: «Sano-standard» nashriyoti, 2017.	
2. M.Toxtaxodjaeva va boshqalar. Pedagogika. T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010	
3. Umumiy pedagogika. Qism I: darslik / O.Musurmonova [va boshq.]. - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. - 376 b	
4. K. Hashimov, S. Nishonova. Pedagogika tarixi. T.: A. Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy Kutubxonasi nashriyoti, 2005.	
5. J. Hasanboyev va boshqalar. Pedagogika. T.: «Noshin» nashriyoti, 2011.	
6. X. Ibragimov, Sh. Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi. T.: Fan va texnologiya, 2008.	
7. N.S.Atayeva, F.Rasulova, M. Salayeva, S.Hasanov. Umumiy pedagogika (Pedagogika tarixi). I Kitob. - T.: «Fan va texnologiya», 2012.	
A. Zunnunov va boshqalar. Pedagogika tarixi. Darslik. T.: Sharq, 2004	
8. O'.Asqarova va boshqalar. Pedagogika. T.: Talqin, 2008	
Qo'shimcha adabiyotlar:	
9. Hasanboeva O., Hasanboyev J., Homidov H. Pedagogika tarixi. Darslik. - T.: G'G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004	
10. M.Mutalipova, B.Xodjajev. Qiyosiy pedagogika. T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2015.	
11. A.Xoliqov. Pedagogik mahorat. T.: IQTISOD-MOLIYA, 2011.	
12. N.Azizxojayeva. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamgarmasi nashriyoti. 2006.	
13. Ф.Жуманова, С.Авазова, Г.Жоборова, У.Хуснетдинов. Умуний педагогика асослари. Т.: "Ishonchli hamkor", 2020.	
14. K. Hoshimov, S.Nishonova, M.Inomova, R.Hasanov. Pedagogika tarixi. T.: O'qituvchi, 1996.	
Axborot manbalari:	
15. www.pedagog.uz	
16. www.ziyounet.uz	
17. www.edu.uz	

	18. www.psychology.net.ru 19. www.navoiy-uni.uz
6.	Fan dasturi Universitet Kengashning 2025-yil ___-avgustdagi ___-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.
7.	Fan/modul uchun mas'ul: G.Jobborova  (imzo) "Psixologiya va sotsiologiya" kafedrasi katta o'qituvchisi.
8.	Taqrizchilar: Jamoldinova O.R.  (imzo) "Psixologiya va sotsiologiya" kafedrasi professori. Mamarajabov Sh.E.  (imzo) TDIU "Innovatsion ta'lim" kafedrasi professori.